

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik)
bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent-2023

21.06.23 367

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat konservatoriyasi.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

T/r	MUNDARIJA	bet
1.	<i>60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik)</i> bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo’llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talabining qo’llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	<i>60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari	5
1.2.3.	<i>60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	<i>60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari	5
2.	<i>60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo’yiladigan talablar	12
2.3.1	Kvalifikatsiya	13
2.3.2	<i>60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik)</i> ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar	13
2.3.3	<i>60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik)</i> bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi	14
	Bibliografik ma’lumotlar	15
	Kelishuv varag’i	16

1. 60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat daturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.**

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ot-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi – fan, ta'lim va san'at sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalish bo'lib, san'at sohasidagi umumiy o'rta va o'rta maxsus, professionaal ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishiga oid fanlarni o'qitish, san'at va madaniyat muassasalarida, davlat va mahalliy boshqaruv organlarida, davlat korxonasi va tashkilotlarida, ta'lim muassasalarida, turli fondlar va loyihalarda hamda turli mulkchilik shaklidagi san'atga oid ishlar bilan bog'liq

tashkiliy-ijodiy-iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni, san'at ta'lim sohasining tegishli yo'nalishlarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalarda majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

– san'at sohasidagi tegishli jarayonlar, ijodiy faoliyat jarayonlari, mualliflik huquqi himoyasiga tegishli qoidalar, san'at sohasining axborot va dasturiy ta'minoti, yaratilgan asarlar va ularning targ'iboti, ijodiy g'oyalarni loyihalash va amaliyotga tatbiq qilish jarayonlari, o'quv-tarbiya jarayoni.

60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari musiqashunos, musiqiy-nazariy va tarixiy fanlar o'qituvchisi, lektor, tanqidchi, umumiy fortepiano sinfi o'qituvchisi kvalifikatsiyalariga ega bo'lish mumkin.

1.2.3. 60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ijodiy-ijrochilik;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari hamda musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda pedagogik;
- ijtimoiy-ma'rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati.

1.2.4. 60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari:

60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

– Ijodiy-ijrochilik faoliyatida:

-
- adabiyot va musiqiy matnlar bilan ishlash;
- o'z fikrini mantiqiy va uzviylikda bayon etish;
- yuqori saviyada adabiy uslublarga ega bo'lish;
- musiqa asarlarini teran tahlil qilish va baholash;
- notiqlik mahorat va imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- ijodiy uchrashuvlarni tashkil etish;
- ko'rsatuv va eshittirishlar uchun materiallar tayyorlash va olib borish;

- - musiqiy asarlarni yuksak badiiy saviyada taxlil qilish bilan bog'liq ijodiy qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda:

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional, maktabdan tashqari ta'lim tizimining ixtisoslikka mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va yakka (laboratoriya) mashg'ulotlarini o'tkazish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish usullarini ishlab chiqish va o'tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;

- mustaqil ta'lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;

- o'quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish;

- musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash va ta'lim jarayoniga singdirish;

- o'quv jarayonini, o'quv-uslubiy, ma'naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg'or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish.

Ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatda:

- kasbiy va havaskorlik badiiy jamoalarda rahbar va maslahatchi sifatida keng ko'lamda musiqiy-ma'rifiy ishlarni olib borish, milliy va jahon musiqa ijodiyoti, ijrochilik yutuqlarini targ'ib etish;

- yoshlar bilan musiqiy-tarbiyaviy ishlar bilan shug'ullanish, aholi tarkibidagi har xil guruh va qatlamlarning talab va ehtiyojlarini hisobga olishni uddalash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ijodiy jarayonlarni tashkil etish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbqiq qilish;

- ijodiy jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijodiy jarayonlarni monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ijodiy jarayonlarni nazorat qilish;

- kompozitorlik va kompozitorlik ko'nikmalarini amaliyotga tadbqiq qilish;

- ijodiy jarayonda sifatni boshqarish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi kompozitorlik, musiqiy asar yoki uni qayta ishlash ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda musiqa san'atiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- musiqa san'atiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;
- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish.

2. 60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- barqaror rivojlanish va media falsafa masalalarini kasbiy faoliyatda qo'llay olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, hamkorlik yozishmalari va elektron aloqalarni olib borish, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni

shakllantirish; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohaslarida erishilgan yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilish; bog'liqligi; Musiqashunoslik asoslari fani ixtisoslik fani ushbu bakalavriat yo'nalishi uchun markaziy o'rinda turadi, u zamonaviy musiqashunoslik tarmoqlari – musiqiy-nazariy, musiqiy-tarixiy, musiqiy sharqshunoslik, musiqiy tanqid va jurnalistika bo'limlarini chuqur ilmiy yondashuv asosida o'rganish borasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan holda fanning ijodiy jarayonlar bilan bog'liqligini belgilash;

Musiqashunoslik asoslari fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Talabalarni musiqa san'atiga oid fan tarmoqlarining tizimi haqida, ularning tub xususiyatlarini idrok etish, shakllanishi va taraqqiyot yo'lini kuzatib o'rganish, xalq musiqasi, mumtoz-an'anaviy, bastakorlik va kompozitorlik musiqa ijodiyotining ilmiy asoslari haqida chuqur tasavvurga ega bo'lganliklarini namoyish etilishi. Talabalarni nazariy va amaliy bilimlar, musiqashunoslik mushohada qilish usullari bilan qurollantirish, xalq va kompozitorlik ijodiyotining mazmunini chuqur tahlil qilish uchun zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarni egallashiga ko'maklashish, hozirgi zamon o'zbek hamda yevropa musiqasining dolzarb muammolarini ochib berish;

San'atshunoslikka kirish fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Ushbu fan qamrovida "San'atshunoslik (musiqashunoslik)" ta'lim yo'nalishlari ("Musiqa tarixi va tanqid", "Musiqa nazariyasi, "O'zbek musiqasi tarixi") bo'yicha tahsil olayotgan talabalarni san'atshunoslik (musiqashunoslik) mutaxassisligining asosiy mezonlari, tarixi va nazariy jihatlari, zamonamizni ilg'or innovatsion pedagogik texnologiyalari bilan tanishtirib, yo'nalishlar bo'yicha umumiy tushunchalar berib, tassavurga ega bo'lishi; O'zbek musiqasi tarixi fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. O'rta Osiyo hududida qadimgi davrlarda musiqa san'atining paydo bo'lishi, o'rta asrlarda musiqa madaniyatining rivoji, qomusiy va musiqashunos olimlarning musiqa risolalari, XX-XXI asr o'zbek musiqasida kompozitorlik janrlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi bosqichlari haqida ma'lumot berish, ularni o'rganish va o'zlashtirishdan iborat;

An'anaviy o'zbek musiqasi asoslari fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. o'zbek an'anaviy musiqasining asoslari bo'lmish folklor san'ati va mumtoz musiqasining shakllanishi va taraqqiyot yo'li, ularning janrlari, ichki qonuniyatlari va ijrochiligi haqida atroflicha ma'lumot berish, ularni o'rganish va o'zlashtirishdan iborat;

O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Musiqa sohasidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy musiqa janrlari tasnifi, o'zbek maqomlari tarixidan o'rta asr O'n ikki maqom tizimi, Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining nota yozuvlari, eng muhim tarixiy, nazariy va ijrochilik masalalari kabi mavzularni bilishga qaratilgan.

Sharq xalqlari musiqasi tarixi fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Sharq mamlakatlarining (dasturda belgilangan) tarixiy rivojlanishi, turli xil zamon va uslublarning musiqa adabiyotlarini; sharq xalqlarining madaniyatidan o'rin olgan o'ziga xos sohalarga tegishli bilimlarini olishi; sharq xalqlari hayotiga tegishli turli tarixiy davrlaridagi eng muhim musiqiy-tarixiy jarayonlarni bilishi nazarda tutiladi;

Etnomusiqashunoslik asoslari fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari.

Etnomusiqashunoslikning asosiy tarixiy taraqqiyot bosqichlari; Markaziy Osiyo xalqlari an'anaviy musiqa ijodiyoti; og'zaki an'anadagi musiqa ijodiyotining asosiy xususiyatlari; musiqiy etnografiya, musiqiy folklorshunoslik va etnomusiqashunoslik ilmiy fanlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; an'anaviy musiqani o'rganish uslubiyatini, janrlari va uslubiy tizimini; an'anaviy musiqani o'rganishga oid zamonaviy etnomusiqashunoslik yo'nalishlarini bilishi va ulardan foydalana olishi; milliy musiqa an'alarining mushtarak va o'ziga xos jihatlarini aniqlash; an'anaviy musiqada kuzatiladigan akustik, ritmik, ohang, lad, tuzilish, bezak kabi unsurlarni ijodiy asarlarda ishlatish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- Notalashtirish fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Talabalarga o'zbek xalq va mumtoz musiqa namunalari notaga olish yuzasidan bilim berish hamda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish. Musiqiy asarning vazn-o'lchovini, usulini, parda tuzilishini, shaklini, o'ziga xoslik va murakkabliklarini to'g'ri aniqlay bilish; nota matnini tayyorlash jarayonida cholg'u ijrochiligi va xonandalik ijro yo'li xususiyatlarini mumkin qadar aks ettira olish; notaga ko'chirilgan asarlarni ijro eta bilish;

- Jahon musiqasi tarixi fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Jahon mamlakatlarining Uyg'onish, Barokko, Klassitsizm, Romantizm kabi tarixiy rivojlanish bosqichlari, MDX davlatlari musiqasini- turli xil zamon va uslublariga oid musiqa adabiyotlarini bilishi; jahon xalqlarining musiqa madaniyati va kompozitorlik san'atiga tegishli yutuq va natijalarni o'rganishi; jahon xalqlari hayotiga tegishli turli davrlarning eng muhim musiqiy-tarixiy jarayonlarni bilishi; musiqa san'atining turli xil zamon va uslublaridan olingan namunalarni, kompozitorlar asarlarini tinglab tahlil etishni; jahon xalqlari musiqa madaniyatini idroklashi, umumiylik va alohida o'ziga xoslik jihatlarini bilishi, har bir jahon xalqlari milliy kompozitorlik maktabi, uslub va yunalishlari haqida alohida tushunchaga ega bo'lishi; jahon xalqlari musiqiy cholg'ularning o'ziga xos jihatlarini anglashi, ijodiyotining asosiy janr va shakllarini, uslubiy turfafigi, voqeliklarini tahlil etish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; jahon xalqlari musiqasining qadriyatlarini, ijodkorlarning faoliyati va bisotini tahlil qilish va tanqidiy baholash; jahon xalqlari musiqa an'alarining mushtarak va o'ziga xos jihatlarini zamonaviy asarlarga singib ketganini aniqlash malakalariga ega bo'lishi kerak;

- Musiqiy tanqid metodologiyasi fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari; musiqiy tarixiy jarayonini tanqidiy nuqtai nazardan baholash; har bir zamonda madaniyat va san'atga nazar tashlaganda ijodkor shaxsning rolini belgilash; madaniy tizimiga oid shakllarni ajrata olish; musiqiy tanqidning ob'ekti, mazmunini ta'riflab bilish; uning o'ziga xosligini belgilab olish; madaniyat sohasida tanqid ko'rinishlarini ajrata olish, madaniyat tanqidchiligi metodologiyasini va metodlarini qo'llay bilish; musiqiy tanqidning ilmiy asoslari faniga oid asosiy tushunchalar va ma'nolar tizimini o'zlashtirish; musiqiy tanqid g'oyaviy va yestetik tamoyillari, musiqiy tanqidiy janrlari doirasi, tasnifi va tavsifini bilish; zamonaviy musiqiy tanqid va jurnalistikaning dolzarb muammolarini o'rganishi lozim.

- Radio va telejurnalistika notiqiligi fanining maqsad va vazifalarini bilish; madaniy xayotimizda kechayotgan jarayonlarni aks yetirishda, jamiyatimizni ma'naviy-ma'rifiy poklanishida musiqa musiqashunos- tanqidchilar o'rnini belgilash;

OAV tizimida , jumladan radio va televideniye, matbuotda o'zining keng ko'lamli targ'ibot ishlarini amalga oshirish musiqqa tanqidchilarning vazifalarini bilish; radio va televideniye san'atining tehnogen va badiiy xususiyatlarini tahlil qilish; musiqiy dasturlarni tayyorlash va yozib olinishi haqida tasavvurga yega bo'lish; radio va teleko'rsatuvlarni olib bo'rish jarayoni bilan tanishish va ko'nikmalar hosil qilish; musiqiy jurnalistikani OAV tizimida o'ziga xos qirralarni o'rganish; radio va television janrlarning shaklu- shamoili va tavsifini bilish; radio va telejurnalistika notiqqligi faniga oid asosiy tushunchalar tizimini o'zlashtirish;

- Tasviriy va amaliy san'at, arxitektura fanining maqsad va vazifalari; tasviriy va amaliy san'at, arxitektura tabiatining umumiy va farq qiluvchi jihatlarini bilish; soha ijodkorlari faoliyatlarini o'ziga hos tomonlarini bilib tahlili qilish; tasviriy va amaliy san'at, arxitektura janr va turlari haqida tasavvurga yega bo'lish; tasviriy va amaliy san'at, arxitektura dasturlarini tahlil qilish; tasviriy va amaliy san'at, arxitektura tanqidiy baholash; jaxon va milliy tasviriy va amaliy san'at, arxitekturatarixida qo'lga kiritilgan natijalari hususuda bilimlarga yega bo'lish; tasviriy va amaliy san'at, arxitekturaning bugungi kuni , muammo va yutuqlarini tanqidiy baholash; tasviriy va amaliy san'at, arxitektura badiiy va texnik imkoniyatlari haqida tasavvurga yega bo'lishlari zarur.

- Musiqiy tarixiy fanlarni o'qitish uslubiyati fanining maqsad va vazifalari; o'quv jarayonida talabalar uslubiy qo'llanmalarni o'rganishni, tarixiy, nazariy muammolarni yechishda ularni bevosita qo'llay olishlari talab etiladi; talabalar o'qish jarayonida musiqiy tarixiy fanlarni asosiy rejalarini tuzish ko'zda tutiladi; bir nechta musiqiy tarixiy fanlarni o'zlashtirib, amalda o'rta pog'onadagn o'kuvchilarga o'rgatish, musiqiy asarlar tahlilini xar bir kompozitor ijodi bilan bog'lash; kompozitorlarning ijodiy faoliyati bilan baravar o'tilish yo'llarini o'rganish; talabalarning o'rta pog'onadagi musiqiy adabiyotning dasturlariga oid uslubiy xususiyatlarni o'zlashtirish, darslarga, ma'ruzalarga va seminarlarga alohida tayyorgarlik ko'rish, bilim va ko'nikmalarni farqini bilishlari talab etiladi; darslarning tuzilishi, o'quvchilar tomonidan o'tilgan darsning o'zlashtirilishini tekshirish, baholay olish; ta'lim jarayonida xalq, mumtoz va zamonaviy musiqqa, kompozitorlik ijodiyotning targ'ibotiga oid masalalarni yoritish uslublarini ham ahamiyatsiz qoldirmaslik.

- Ilmiy tadqiqot asoslari fanining maqsad va vazifalari; ilm-fan, ijodiyot haqida asosiy tushunchalar bilish; tadqiq qilish usullari haqida bilimlarga yega bo'lish;- ilmiy-ijodiy ishlarni tahlil qilishni o'rganish va shaklu - shamoili bilish; ilmiy ishni yozish borasida amalga oshirish bosqichlari haqida tasavvurga yega bo'lish; tadqiqot usullarini tahlil qilish va qo'llash borasida ko'nikmalar orttirish; bakalavrlilik bitiruv ishi mavzusi bo'yicha kerakli ilmiy ma'lumot bazasi hususida tasavvurga yega bo'lish; ilmiy ish yozish va uning ustida ishlash tajribasini oshirish; empirik tajriba natijalarini mustaqil tahlil qilaolish; musiqiy tanqidiy xulosalar chiqarish; tavsiyalar berib, tadqiq qilinayotgan badiiy ob'ektning modelini yaratishni o'zlashtirib olish boyicha tasavvurga yega bo'lishlari zarur.

- Solfedjio fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Solfedjio darslariga o'quv jarayonining samarasi talabaning fanlardan (musiqaning elementlar nazariyasi, garmoniya, polifoniya, musiqiy asarlar tahlili) qay darajada tayyorgarlik ko'rganiga bog'liq, ya'ni mazkur fan barcha musiqiy-nazariy fanlar bilan uslubiy jihatlar bilan uzviy bog'liq va ulardan olingan bilimlarni ma'lum darajada to'ldirishga xizmat qiladi.

Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Musiqashunoslarning musiqiy qobiliyatlar hamda musiqani anglash malakasini rivojlantirishdan iborat. Talabalar turli davr va milliy uslublarga taalluqli musiqa namunalarini to'laqonli idrok etish, xotirani har tomonlama rivojlantirish, notaga qarab kuylash va tinglash jarayonida ohang aniqligini nazorat qilish kabi ko'nikmalarni takomillashtirishdan iborat;

- Garmoniya fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Professional ko'nikmalarning rivojiga yordam beradi. Garmoniyani o'rganish musiqiy fikrning qaror topishi va rivojlanishi, musiqiy-g'oyaviy timsollikning shakllanishi jarayonida garmoniyaning o'rni va ahamiyatini anglashga qaratilgan. Garmoniya nazariy qoidalarini va tarixiy rivojini o'rganish, uning tub xususiyatlarini idrok etish, sohaga oid tayanch tushuncha va atamalarning ilmiy jihatdan to'g'ri talqin etish, musiqa asarlaridagi garmonik rivojini tahlil etish, fortepianoda turli garmonik mashqlarni bajarishdir. Garmoniyani muhim ifodaviy va shakllantiruvchi vositasi sifatida ochish hisoblanadi, u boshqa ifodaviy vositalar bilan birga musiqiy timsolni shakllantiradi. Garmoniyani musiqiy tilning barcha tarkibiy qismlari bilan bog'lash. Musiqaning badiiy g'oyasi va mazmunidan kelib chiqqan holda garmonik vositalarni tanlash. Ushbu fan yuzasidan talabalar musiqa nazariyotining asosiy tamoyili - garmonik tafakkurlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Garmoniya fani talabalar uchun kelajakdagi faoliyatiga tayyorlanib, kasbiy mohirligini ochirishda chuqur ta'sir ko'rsatadi;

- Musiqiy asarlar tahlili fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Musiqiy asarlar tahlilining o'rni va ahamiyati juda muhim bo'lib, u musiqiy asarning tuzilishi, kelib chiqishi, gomofonik musiqa janrlari va shakllarining kristallashuvini va evolyusion rivojini Barokko musiqasidan tortib, to zamonaviy kompozitorlari, shu jumladan O'zbekiston kompozitorlari ijodiyotini o'rganadi. Bir tomondan musiqa shakllari nazariy jihatidan, ikkinchi tomondan - tarixiy jihatidan o'rganiladi. Turli tarixiy davrlarga oid yirik yo'nalish va maktablar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan individual uslub, milliy o'ziga xoslik singari asarlarning shakl yasovchi va ta'sir etuvchi xususiyatlarini ochib berishdir. Fanni Talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Shakl asosini xosil qiluvchi mavzuiylik, rivojlanish tamoyillari; turli tarixiy davrlar va uslublarga hos bo'lgan oddiy va murakkab shakllar hamda cholg'u va vokal turkumlarni o'rganiladi;

- Polifoniya fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Polifoniya ixtisoslik fani hisoblanadi. Mazkur fan qadimgi polifoniya musiqasidan tortib, zamonaviy kompozitorlari, shu jumladan O'zbekiston kompozitorlari ijodiyotini o'rganadi. Mazkur fanda musiqa san'atining rivojining asosiy tamoyillari va xususiyatlari; turli davridagi (O'rta asr, Qayta uyg'onish, Renessans, Barokko, klassitsizm, romantizm va XX-XXI asr musiqasi) ifodaviy vositalari, usul, polifonik shakllari va uslublarini o'rganib boriladi. Mazkur material, bir tomondan nazariy, ikkinchi tomondan esa tarixiy jihatdan ko'rib chiqiladi. Ushbu fanda o'zlashtirilgan bilimlar talabalarning kelgusi faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Turli tarixiy davrlarga oid yirik yo'nalish va maktablar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, individual uslub, milliy o'ziga xoslik singari polifoniyaning shakl yasovchi va ta'sir xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir. Polifoniya fani oldida turgan vazifa quyidagilar: talabalarga polifoniya fanining mohiyatini ochib berish va mustaqil bilimlar bilan qurollantirish; qat'iy va erkin uslublarning usul va shakllarini o'rgatish; turli uslubdagi polifonik shakllarning xususiyatlarini ochib berish; polifonik tuzilmalar va tugallangan shakllarni bastalashni

o'rgatish;

- Musiqiy-nazariy tizimlar. Monodiyaning nazariy asoslari fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Talabalarda san'at sohasida faoliyat olib boradigan musiqashunos mutaxassisligiga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Musiqiy nazariy tizimlar fani bo'yicha o'qitish jarayonini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: musiqiy san'at haqidagi barcha ilmiy-nazariy tushunchalarni umumlashtirish; yuqori darajadagi bo'lajak mutaxassisi tizimli tafakkur yuritishga o'rgatish, ya'ni zamonaviy o'rganishning eng perspektiv usullaridan biriga yo'naltirish. Uzlaksiz ravishda musiqashunoslik mutaxassisligi bo'yicha tahsil oladigan barcha talabalarga XXI asrga qadar musiqashunoslikning rivojlanish davrlarida qo'llanilgan musiqiy nazariy tizimlarni o'rgatish hamda ular asosida yangicha tafakkurni rivojlantirishdan iboratdir. Talabalarning mustaqil tayyorgarlik ko'rishi uchun alohida e'tibor qaratiladi. Musiqa san'ati tarixida etakchi o'rin olgan musiqa turi (monodiya)ning o'ziga xos xususiyatlari, tuzilish qonun va tamoyillari, ayniqsa Sharq monodiyasiga taalluqli nazariy masalalarni o'rganishdan iborat. Talabalar musiqashunoslikning turli yo'nalishlarida bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishi bilan birga ularda musiqiy merosimiz borasidagi tasavvur va qarashlari boyitib, kengaytirishga qaratilgan;

- Maqom solfedjiosi fanining ob'ekti, maqsadi va vazifalari. Maqom solfedjiosi fanining dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrda e'lon qilingan "O'zbek milliy maqom san'atini yanda rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yuzasidan yanada oshib boradi. Bu tarixiy hujjatda "Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy qarashlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy xayotimizda alohida muhim o'rin egallaydi". Ana shu ko'rsatmadan kelib chiqqan holda sozandalarning musiqiy tafakkurining tarbiyalash milliy musiqiy qadriyatlarimizning tub asoslarini ongli ravishda ilmiy-nazariy va amaliy o'zlashtirishga bevosita bog'liqdir. Musiqa ta'limi esa solfedjio fanidan boshlanadi.

- hamkorlik aloqalari va ommaviy nutqlarni o'tkazish, muzokaralar, uchrashuvlar, hamkorlik yozishmalari va elektron aloqalarni olib borish qobiliyati;

- madaniyat va san'at sohasidagi zamonaviy axborot tizimlaridan foydalangan holda ta'lim jarayonlariga oid turli usul va texnologiyalarni ta'lim jarayoni sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini hisobga olgan holda ishlab chiqishda mohirlik;

- kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan faul va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo’nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo’shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalarini shakillantirishga qaratiladi;

Pedagogik amaliyot – pedagogik mahoratni oshirishga qaratiladi.

2.3.1 Kvalifikatsiya: San’atshunos, o’qituvchi, lektor, tanqidchi, umumiy fortepiano sinfi o’qituvchisi.

2.3.2 60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik) ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar

O’quv fanlari, bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	6360	212
Tanlov fanlar	300	10
Malakaviy amaliyot	390	13
Bitiruv malakaviy ishi	150	5

2.3.3 60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik) bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi

T/r	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	6360	212	
1.01	MSHA1717	Musiqashunoslik asoslari	510	17	2--7
1.02	SMK1102	San’atshunoslikka (musiqashunoslikka) kirish	60	2	1
1.03	MSHK4102	Manbashunoslik	60	2	7
1.04	MTA3204	Musiqiy tanqidning ilmiy asoslari	120	4	4,5
1.05	JMT1829	Jahon musiqasi tarixi	870	29	1--8
1.06	O’MT1310	O’zbek musiqasi tarixi	300	10	1--3
1.07	O’MN2105	O’zbek maqomi tarixi va nazariyasi	150	5	3
1.08	AO’M2105	An’anaviy o’zbek musiqasi	150	5	4
1.09	SIIMT3105	Sharq xalqlari musiqa tarixi	150	5	5
1.10	USI1210	Uslubiy solfedjio	300	10	1,2
1.11	GYA1414	Garmoniya	420	14	1--4

1.12	MAT2414	Musiqqa asarlari tahlili	420	14	2--6
1.13	PYA3414	Polifoniya	420	14	5--8
1.14	FNO1607	Fortepiano	210	7	1--6
1.15	MPP3105	Musiqiy pedagogika va psixologiya	150	5	6
1.16	KP4102	Kasbiy pedagogika	60	2	8
1.17	AT2410	Xorijiy til	300	10	4--7
1.18	O'Y1105	O'zbekistonning eng yangi tarixi	150	5	1
1.19	O'RT1102	O'zbek (rus) tili	60	2	2
1.20	DIN4104	Dinshunoslik	120	4	8
1.21	FFA4104	Falsafa	120	4	8
1.22	MNU4102	Musiqiy-nazariy fanlarni o'qitish uslubiyoti	60	2	7
1.23	MTU4102	Musiqiy-tarixiy fanlarni o'qitish uslubiyoti	60	2	8
1.24	ETA3205	Etnomusiqashunoslik asoslari	150	5	6,7
1.25	NOT1205	Notalashirish	150	5	1,2
1.26	MSO3205	Maqom solfedjiosi	150	5	5,6
1.27	RTN4102	Radio va telejurnalistika notiqligi	60	2	8
1.28	XSH3405	Xorijiy sharq tillari (arab, fors)	120	4	5--8
1.29	MNA4105	Musiqiy-nazariy tizimlar	150	5	7
1.30	MNA4102	Monodiyaning nazariy asoslari	60	2	7
1.31	TAA4102	Tasviriy va amaliy san'at, arxitektura	60	2	7
1.32	CHG'K1104	Cholg'ushunoslik (simfonik orkestr; XCHO)	120	4	2
1.33	CHG'SH2102	Cholg'ulashtirish (simfonik orkestr; XCHO)	60	2	3
1.34	PTO'2202	Partitura o'qish (simfonik orkestr; XCHO)	60	2	3,4
2.00		Tanlov fanlar	300	10	3--7
JAMI:			6660	222	
Malakaviy amaliyot			390	13	2,4,6,8
Bitiruv malakaviy ishi			150	5	8
HAMMASI:			7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning ta'lim dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, kasb ta'limi, kasbiy psixologiya, kasbiy pedagogika, ta'limda informatsion texnologiyalar, kasbiy ta'lim didaktikasi, kasbiy pedagogik mahorat, pedagogik texnologiyalar, uslubiyot, bastakorlik, kompozitorlik san'ati, kompozitorlik, ijodiy asar, musiqiy asar, duet, trio, kvartet, ansambl, orkestr, partitura, simfoniya, san'atshunoslik, musiqashunoslik, san'atshunos, musiqashunos, musiqqa ilmi, musiqiy manbalar, o'zbek maqom san'ati, solfedjio, garmoniya, polifoniya, musiqqa nazariyasi, musiqqa adabiyoti, musiqqa tarixi, nazariy kurs, dars berish uslubiyoti, musiqiy mavzu, musiqiy asarlar tahlili, musiqiy tahrir.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar istemolchilari
ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Rektor  K.T. Urinbayev

2023 yil « 27 » 06

M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor  Sh.U. Yakubov

2023 yil « 21 » 08

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat va turizm vazirligi "Ta'lim va ilm
fanni rivojlantirish boshqarmasi"

Boshqarma boshlig'i  N.K. Kasimov

2023 yil « 27 » 06

M.O'.

M.O'.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti

Rektor.v.v.b  E.O. Shermanov

2023 yil « 27 » 06

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa
san'ati instituti

Rektor  O.A. Nazarbekov

2023 yil « 27 » 06

M.O'.

M.O'.

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari
uyushmasi

Rais  R.A. Abdullayev

2023 yil « 27 » 06

O'zbekiston davlat filarmoniyasi

Direktor  A.Y. Tojiboyev

2023 yil « 27 » 06

M.O'.

M.O'.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi
60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik)
ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasini ishlab
chiquvchilar, oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari
o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ 27 ” 06 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - O'zbekiston davlat konservatoriyasi rektori K.T.Urinbayev, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektor.v.v.b E.O'.Shermanov, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi R.A.Abdullayev, O'zbekiston davlat filarmoniyasi direktori A.Y.Tojiboyev birgalikda O'zDKda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishning malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60211000 – San'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejasini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi PQ-112-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtamasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi rektori



K.T.Urinbayev

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektor.v.v.b



E.O'.Shermanov

O'zbekiston kompozitorlar va bastakorlari uyushmasi raisi

R.A.Abdullayev

O'zbekiston davlat filarmoniyasi direktori



A.Y.Tojiboyev